

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

GEOMETRIYA

I qism

PLANIMETRIYA

Akademik litseylar uchun darslik

TOSHKENT 2021

Mualliflar: J.Husanov, X.A.Nasimov, N.B.Shamsiddinov

O‘zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi Matematika instituti direktori, fizika-matematika fanlari doktori, akademik **Sh.A.Ayupov**ning umumiy tahriri ostida

Taqrizchilar:

A.Abdukarimov – Toshkent davlat texnika universiteti Oliy matematika kafedrası dotsenti, fizika matematika – fanlari nomzodi

B.Abdurahmonov – Toshkent farmatsevtika institute Oliy matematika kafedrası dotsenti, fizika matematika – fanlari nomzodi

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan akademik litseylar uchun tavsiya etilgan na’munaviy dastur asosida yozilgan bo‘lib, undan matematikaga ixtisoslashtirilgan, shuningdek, umumiy o‘rta va kasb-hunar maktablari o‘quvchilari ham foydalanishlari mumkin. Darslik na’munaviy dasturda rejalashtirilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarining barcha mavzularini qamrab olgan asosiy nazariy tushunchalar, ularning tadbirlariga oid misol va masalalarni o‘z ichiga oladi.

SO‘ZBOSHI

O‘rta maxsus ta’lim akademik litseylarda to‘qqiz yillik tayanch o‘rta ta’lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta’lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek, chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.

Uzluksiz ta’lim tizimi har bir bosqichining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular uchun o‘quv adabiyotlari yaratish zarurati tug‘ildi. Shu maqsadda Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi ishlab chiqildi va hozirgi vaqtda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va Akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4910-son Qarorida:

akademik litseylarda chuqurlashtirilgan ta’lim dasturlari asosida o‘qitish;

o‘quvchi yoshlarda keng dunyoqarash, intellektual salohiyat, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularning fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish;

o‘quvchilarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, vatanparvarlik, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik ruhida tarbiyalash;

ikki yillik tizimga moslashtirilgan hamda o‘quvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta’lim va fan dasturlari asosida o‘quv adabiyotlari – darsliklar, o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish tizimini takomillashtirish kabi qator salmoqli vazifalar belgilangan.

Mazkur “Geometriya” darsligi ikki qismdan iborat bo‘lib, Matematika chuqurlashtirib o‘qitiladigan Akademik litseylar uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2021-yil 26-fevraldagi 1-son majlis bayoni

bilan ma'qullangan hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 26-fevraldagi buyrug'i bilan tasdiqlangan "Akademik litseylarda geometriya fanidan namunaviy o'quv dasturi" asosida ishlab chiqilgan. Darslikning birinchi qismi 8 bobdan iborat bo'lib, quyidagi mavzular yoritilgan:

- Geometriya aksiomatikasi;
- Uchburchaklar geometriyasi;
- Serkul va chizg'ich yordamida yasash usullari;
- To'rtburchaklar;
- Aylanalar;
- Muntazam ko'pburchaklar;
- Koordinatalar sistemasi va vektorlar;
- Tekislikda geometrik almashtirishlar.

Darslikda mavzularning izchil yoritilishi o'quvchilarda tayanch (kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklardan xabardor bo'lish hamda foydalanish) va fanga oid ((geometriya fani mazmuniga oid umumiy), kognitiv (ijodiy fikrlash)) kompetensiyalarni shakllantirishda, shuningdek, o'rganilgan yassi shakllar kombinatsiyalariga oid masalalarni yecha olish, geometrik modellashtirish va uni tahlil qilishda muhim o'rin tutadi.

Geometriya fani mavzularini bayon qilishdagi harakatlarimiz mutaxassislar va matematikaga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasini qiziqtiradi, deb umid bildiramiz hamda kitob mazmuni, bayon usuli bo'yicha barcha fikr va takliflarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

MUALLIFLAR